



UCH XONALI SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

Hakimova Zarifaxon

*Andijon viloyati asaka tumanidagi 23-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

TAQRIZ

Boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sing o'quvchilariga jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lishni o'rgatishning mazmuni, shakl, metodlari va vositalari haqida so'z boradi.

Zamonaviy ta'lim o'quvchilarda materialni to'liqroq va chuqurroq o'zlashtirishga, shuningdek, darsda mustaqillikdan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni oshiradigan tarzda amalga oshirilishi kerak. O'quv jarayonida o'quvchilar jadvali ko'paytirishning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini o'zlashtirishlari kerak. Buning uchun darsda har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlovchi, o'quvchilarning tarbiyaviy ish natijalari uchun mas'uliyatini oshiradigan shunday vazifalar alohida o'rin egallashi zarur.

Ushbu mavzu yuzasidan o'qituvchi oldida turgan maqsadlar quyidagilardan iborat:

1) o'quvchilarga qo'shish amallarini tushuntirish.

2) hisoblash usullari - "sonni qismlari bo'yicha (bittalab yoki gruppalab) qo'shish" usuli, ikkita sonni yig'indining o'rin almashtirish xossasidan foydalanib qo'shish usuli.

Uch xonali sonlarni tartiblashni o'zlashtirish ko'p jihatdan ikki xonali sonlarning hosil bo'lishi va ularning yozilishini tushunishga bog'liq, shuning

uchun birinchi yuzlik ichidagi sonlarni tartiblashni og'zaki mashqlarga quyidagi mazmunda 1—2 ta topshiriqni muntazam kiritish bilan oldin takrorlash kerak.

1. Xona birliklari orasidagi bog'lanish: yuzda nechta o'nlik bor?

0'nlik birlikdan necha marta katta? Va h. k.

2. Ikki xonali sonlarning o'nli tarkibi: 6 ta o'nlik va 3 ta birlik qanday sonni tashkil qiladi? II xonadan 4 birlik va I xonadan 2 birlik-chi? 56, 65 sonlarida har bir xonaning qancha birligi bor?

3. 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning natural ketma-ketligi:

10 (20 va h. k.) sonidan boshlab bittadan (5 tadan, 10 tadan) qo'shib sanang, qatorida 64, 65, 66, ... sonlaridan keyin keladigan yana bir nechta sonni ayting; sonlar qatorida 99 ga qo'shni sonlarni ayting; bu sonlar qanday hosil bo'ladi?



Bundan tashqari, bolalarni yangi mavzuni o'tishga tayyorlab borish, ularda „katta sonlarga“ qiziqish tug'dirish zarur. Yangi sonlarning nomlari bu sonlarni maxsus o'rganishdan oldin darslarda eshitilib turishi kerak. Shu maqsadda, o'qituvchi qaysi bola yuzdan keyin sanashni davom ettira olishini aniqlab olishi kerak; birinchi yuzlik ustida ishlashning oxirgi bosqichida ba'zan natijasi yuzdan katta sonlar chiqadigan qo'shish va ko'paytirishga doir og'zaki mashqlarni, masalan, $63 + 37$, $70 + 35$, $54 \cdot 2$, $25 \cdot 6$ va shunga o'xshash mashqlarni berish mumkin. Shuningdek, sonlarning nomlarini aytishga doir, natijasi yuzdan katta sonlar chiqadigan quyidagi mashqlarni berish mumkin:

1. a) 96, 97, 98... sonlardan keyin keladigan 5,7 ta sonlarni ayting;
- b) 60, 70, 80 ...sonlardan keyin keladigan 5,7 ta yaxlit o'nlik sonni ayting;
- d) 94, 96, 98... dan keyin keladigan 5,7 ta juft sonni ayting.

2. Sanoqda 38 dan keyin qaysi son aytiladi? 138 sonidan keyinchi? 185 dan keyin-chi? 145 dan keyin-chi?

57 dan oldin-chi? 257 dan oldin-chi? va h. k. Yuqoridagi mashqlar o'quvchilarga yuzdan katta sonlar mavjudligiga va ko'pligiga, ularning hosil bolishi va nomi bolalarga ma'lum bo'lgan sonlar bilan o'xshashligini tushunishga yordam beradi. Uch xonali 328 sonining yozuvida uchta xonani — birlar, o'nlar, yuzlar xonasini tashkil etuvchi uchta raqam bor. Bu xonalar birlashtiriladi va sinf deb ataladi. Istalgan miqdordagi turli raqamlardan tashkil topgan sonlarni — to'rt xonali, besh xonali, olti xonali, yetti xonali va h.k. sonlarni yozish mumkin. 625 347 soni —olti xonali son. O'ngdagi dastlabki uchta raqam birlar sinfini tashkil etadi. Birlar sinfidan keyin minglar sinfi keladi. Minglar sinfida uchta xona bor, bular: bir minglar, o'n minglar, yuz minglar. raqami beshta minglikni, 2 raqami ikkita o'n minglikni, 6 raqami oltita yuz minglikni anglatadi. Hammasi bo'lib, bu sonda 625 ta minglik, 347 ta birlik bor. Shuning uchun 625 347 sonini bunday o'qish qabul qilingan: olti yuz yigirma besh ming uch yuz qirq yetti („birlik“ so'zi aytilmaydi).

So'ngra jadvalga qaraymiz. Birinchi sonda ikkinchi sinfning 45 birligi bor. Bu son 45 ming deb o'qiladi. Birlar sinfiga yozilgan nollar bu sinfda birinchi sinf birliklari yo'qligini bildiradi. Jadvalda yozilgan keyingi sonlarning har birida ikkinchi sinfning nechta birligi bor? Shu sonlarni o'qing kabi topshiriqlar o'quvchiga berib borilishi lozim.



II sinf – minglar sinfi			I sinf – birlar sinfi		
Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
1	4	5	0	0	0
5	9	8	0	0	0
	0	0	0	0	0
	7	0	0	0	0

Minglar sinfidan keyin millionlar sinfi keladi. Uning xonalari bunday ataladi: bir millionlar, o'n millionlar, yuz millionlar.



Ko'p xonali sonni o'qish uchun, uning yozuvini o'ngdan chapga qarab har birida uchtadan raqami bo'lgan sinflarga ajratiladi. Oxirgi (chapdagi) sinfda 3 ta, 2 ta yoki 1 ta raqam bo'lishi mumkin. Misol, 3 000 624 sonini o'qing. Yozuvni o'ngdan chapga 3 ta raqamli sinflarga ajratamiz. Har bir sinf birliklari sonini va unga qo'shib sinf nomini aytamiz (birlar sinfining nomi aytilmaydi). Minglar sinfi nollardan tashkil topgan, shuning uchun uning nomi aytilmaydi. 3 000 624 soni bunday o'qiladi: uch million olti yuz yigirma to'rt.

Ixtiyoriy sonni uning xona qo'shiluvchilari yig'indisi bilan almashtirish mumkin.

$$\text{Masalan: } 804 = 800 + 4$$

$$804\ 000 = 800\ 000 + 4\ 000$$

O'quvchilar ongiga agar biror xonada nol turgan bo'lsa, sonni o'qishda shu xona nomi tushirib qoldiriladi deagn qoidani yaxshilab singdirish darkor.. Ko'p xonali son yuqori sinfdan boshlab yoziladi. Masalan, uch yuz olti ming olti yuz o'n uch sonini yozish uchun quyidagicha mulohaza yuriting:

1) Bu sonda ikkinchi sinf birligi nechta ekanini yozaman (306).

2) Birinchi sinfning birliklarini yozaman (613).

Sinflar orasida biroz joy qoldiriladi. Yozilishi: 306 613.

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari yordamida ixtiyoriy sonni yozish mumkin. Son yozuvidagi raqamning qiymati uning shu yozuvda o'zi egallagan o'rniga bog'liq bo'ladi. 309 451, 697 038, 173 006 sonlarini o'qing. Birinchi sonning yozuvida 3 raqami 3 yuz mingni, ikkinchi sonning yozuvida 3 o'nlikni, uchinchi sonning yozuvida 3 mingni anglatadi.

Ko'p xonali sonlarda qo'shish va ayirish malakalari bilan tanishishishni boshlaymiz.



$\begin{array}{r} \bullet 910 \\ - 400 \\ \hline 510 \\ - 47 \\ \hline 463 \end{array}$	$\begin{array}{r} \bullet 9910 \\ - 1000 \\ \hline 8910 \\ - 521 \\ \hline 8389 \end{array}$	$\begin{array}{r} \bullet 99910 \\ - 60003 \\ \hline 39907 \\ - 284 \\ \hline 39623 \end{array}$
---	--	--

Ko'p xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish uch xonali sonlarni qo'shish va ayirish kabi bajariladi.

$\begin{array}{r} + 8567 \\ + 1129 \\ \hline 9696 \end{array}$	$\begin{array}{r} \bullet 35147 \\ - 23956 \\ \hline 11191 \end{array}$
--	---

Bunday tushuntiriladi:

- | | |
|----------------------------|---------------------------|
| Birliklarni qo'shaman ... | Birliklarni ayiraman ... |
| O'nliklarni qo'shaman ... | O'nliklarni ayiraman ... |
| Yuzliklarni qo'shaman ... | Yuzliklarni ayiraman ... |
| Mingliklarni qo'shaman ... | Mingliklarni ayiraman ... |

Hisoblashning mana shunday shakli va hisoblanishini biz avvalgi darslarda bir necha bor ko'rdik va bajardik. Endi esa xuddi shu usulni ozroq murakkablashtiramiz va 3 ta sonni ustun shaklida hisoblaymiz. bu usulni 4-sinf darsligida quyidagicha ko'rish mumkin.

I usul	II usul
$\begin{array}{r} + 2749 \\ + 534 \\ \hline 3283 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 301815 \\ + 3283 \\ \hline 305098 \end{array}$
	$\begin{array}{r} + 301815 \\ + 2749 \\ \hline 534 \\ \hline 305098 \end{array}$

Bunda ham xuddi ikkitali sonni qo'shish kabi uchchala son ham ustma-ust yoziladi.

Xona birliklari qo'shiladi. Dilda saqlangan sonlar keyingi xona birliklariga qo'shib ketiladi. Ayirish misollarini ham yuqoridagi ko'rinishda ishlash mumkin. Lekin bu tarzdagi misollarni darslikda berilmaydi. Chunki bu usullar yuqori sinflarda batafsil tushuntirilgani ma'qul. Aks holda, bola misol ishlash jarayonida chalkashliklarga, muammoli vaziyatlarga duch keladi.

Shuningdek, o'quvchilar amallarni bajarish jarayonida agar ifoda faqat ko'paytirish va bo'lish amallaridan iborat bo'lsa, amallar ketma-ket (chapdan o'ngga) bajarilishi haqida tushunchaga ega bo'lgan edilar. Lekin to'rt arifmetik amal birga qo'llanganda avval ko'paytirish va bo'lish, so'ngra qo'shish va ayirishning ham chapdan o'ngga tomon hisoblanishi haqida ham ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozimdir.

Bu darslarning batafsil o'tilishidan maqsad o'quvchilarda qo'shish va ayirish malakalarining mustahkamlanishi, ushbu arifmetik amal qoidalarni har qanday



holatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish, hisoblash malakalarining shakllanishi va bu bilimlarning yuqori sinflarda o'tilajak mavzularga asos bo'lib xizmat qilishini

ta'minlashdan iboratdir.

DIDAKTIK O'YINLARDAN NAMUNALAR

Quyida matematika darslarida o'tkaziladigan ayrim didaktik o'yinlardan namunalar keltiriladi.

"Jim" o'yini

O'yinning maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi.

O'yin jihozi: Raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval.

O'yinning borishi: Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O'yin ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar.

"Bilmasvoyning xatolari" o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

$$10-7=4$$

$$3+2=6$$

$$10-3=6$$

$$4+3=8$$

$$7-3=5$$

$$4+1=6$$



"Kim epchil" o'yini.

O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish.



O'yin jihozi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakoza.

Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2015-yil.
2. Aliev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O'qituvchi, 2016.
- 3.. Boboyeva Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent:O'qituvchi,2017